4. Tergovchi va ekspert o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muammolarini aniqlash – amaliyotdagi mavjud uzilishlar, aloqa va koordinatsiya muammolarini baholash.

5. Maxsus bilimlar asosida jinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishga doir takliflar ishlab chiqish – ilmiy asoslangan, huquqiy va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim mahalliy va xorijiy mualliflar ushbu masalaga turlicha yondashgan. Jumladan, A. Jo'rayev jinoyatlarni tergov qilishda kriminalistik usullarning qo'llanishini chu-

qur yoritgan va tan jarohatlari holatini aniqlashda dalillarning kompleks tahlilini asoslab bergan [1, 151-b.]. N. Karimov esa sud-tibbiyot ekspertizasining huquqiy asoslari va ekspert xulosasining ishonchlilik mezonlarini keng tahlil qilgan [2, 99-b.]. Xorijlik olimlardan V. Shepitko jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlarning o'rnini alohida baholagan. U metodologik asos sifatida tizimli yondashuv va holatli tahlil metodidan foydalanган [5, 203-b.].

Material va metodlar

Ushbu tadqiqot doirasida jismoniy zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlarni qo'llash amaliyoti ko'rib chiqildi. O'rganish jarayonida sud tergov amaliyotidan 50 dan ortiq jinoyat ishi hujjatlari, 20 dan ortiq sud-tibbiy ekspertiza xulosalari, tergovchilar va ekspertlar o'rtasidagi yozishmalar, O'zbekiston Respublikasining huquqiy normalari o'rganildi. Bundan tashqari, prokuratura va ichki ishlar organlarining 30 nafar tergovchisi so'rov qilindi hamda suhbatlar o'tkazildi. Ko'rib chiqilgan jinoyat ishlari bo'yicha jarohatlarning sabablari, vaqti va og'irligini aniqlash uchun qanday aniq bilimlardan foydalanilganligi tekshirildi. Tadqiqotda ayni yo'nalishda xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasi, AQSh va Germaniya amaliyotidagi ba'zi ilg'or tajribalar solishtirma tarzda tahlil qilindi [1, 39-b.; 6, 108-b.; 5, 203-b.].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi-ning 104–111-moddalarida tan jarohati yetkazish jinoyatlari turlicha og'irlikdagi holatlarda tartibga solingan. Bu moddalarga ko'ra, jinoyatning og'irligi jarohat darajasiga qarab belgilanadi va tergov jarayonida bu holatning aniqlanishida sud-tibbiyot ekspertizasining roli juda muhimdir [9]. Statistik metod asosida tanlab olingan jinoyat ishlarida sud-tibbiyot ekspertizasi qo'llangan hollarning chashtotasi va samaradorligi baholandi [4, 118-b.]. Shuningdek, ekspertiza xulosalarining tergov qarorlariga ta'siri ham tahlil qilindi. Tadqiqot obyektlari sifatida O'zbekiston hududida sud-

tergov tizimi tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlari, shuningdek, bu sohada faoliyat yurituvchi tergovchilar va ekspertlar tanlab olindi [2, 67-b.].

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida 2018–2023-yillar oralig'ida tan jarohatlari yetkazish jinoyatlari bilan bog'liq 50 ta tergov ishi o'rganildi. Ulardan 38 tasida sud-tibbiyot ekspertizasi o'tkazilgan, 12 tasida esa ekspertiza qo'llanmagan yoki natijalari noaniq bo'lgan. Ushbu tahlil ekspertizadan foydalanish jinoyat ishining tezroq va ishonchli hal etilishida muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

1-jadval

Sud-tibbiyot ekspertizasi qo'llangan tergov ishlarining yillik taqsimoti (2018–2023)

Yil	Tergov ishlari soni	Ekspertiza qo'llangan	Foizda (%)
2018	8	5	62,5%
2019	10	7	70 %
2020	9	7	77,7 %
2021	7	6	85,7 %
2022	8	7	87,5 %
2023	8	6	75 %
Jami	50	38	76 %

Ma'lumotlarga ko'ra, ekspertiza o'tkazilgan holatlarning 90 foizdan ortig'ida tergov vaqti qisqartirilib, jinoyat tarkibini aniqlash ancha osonlashdi. Bu shuni ko'rsatadiki, ekspert fikri ishonchli dalil sifatida hal qiluvchi ahamiyatga ega.


O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura huzuridagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida ushbu toifadagi jinoyatlar soni nisbatan o'zgaruvchanlik bilan ortib borgan. Jumladan, 2020-yilda 3 820 ta, 2021-yilda 4 076 ta, 2022-yilda 4 390 ta, 2023-yilda esa 4 787 ta tan jarohati yetkazish holatlari qayd etilgan. Bu esa yilma-yil o'sish sur'ati o'rtacha 6–9 %ni tashkil etayotganini ko'rsatadi.

Jinoyat turlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, o'ta og'ir tan jarohatlari bilan bog'liq holatlar umumiy jinoyatlar sonining 14–18 foizini tashkil etmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ushbu jinoyatlarning tergov jarayonida maxsus bilimlar, xususan, sud-tibbiy ekspertiza, sud-psixiatriya va biologik tahlillarni qo'llash darajasi ba'zi hududlarda past bo'lib qolmoqda. Bu esa jinoyatlarning asosli baholanishi va sudga taqdim etilayotgan dalillarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2-jadval

2020–2023-yillarda tan jarohatlari bilan bog'liq jinoyatlar statistikasi (O'zbekiston)

Yil	Jinoyatlar soni	Og'ir tan jarohati	Ekspertiza tayinlangan holatlar (%)
2020	3 820	580 (15,1 %)	2 345 (61 %)
2021	4 076	615 (15,1 %)	2 562 (62,8 %)
2022	4 390	712 (16,2 %)	2 837 (64,6 %)
2023	4 787	842 (17,5 %)	3 204 (66,9 %)



Rasm. Tan jarohatlari bilan bog'liq jinoyatlar
va ekspertiza tayinlash darajasi (2020–2023)

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tergov amaliyotida maxsus bilimlardan foydalanilgan ishlar bo'yicha jinoyatni fosh qilish, aybdorni aniqlash va sudda isbotlash ko'rsatkichlari yuqori. Misol uchun, 2023-yilda maxsus bilimlardan foydalanilgan 3 204 ta ishning 2 886 tasida jinoyat

tarkibi to'liq aniqlangan va aybdorga nisbatan qonuniy qaror chiqarilgan. Bu esa samaradorlik ko'rsatkichining 90,1 foizga yetgani bildiradi.

Muallif mazkur holatni ijobiy baholaydi va shunday xulosaga keladiki, ekspert xulosasi faqat yordamchi vosita emas, balki dalillar tizimining markaziy bo'g'ini sifatida qaralishi lozim. Chunki aynan ekspert xulosasi asosida zarba yo'nalishi, jinoyat quroli, vaqtincha interval kabi muhim faktlar aniqlanmoqda.

Bundan farqli ravishda, ekspert jalb etilmagan holatlarda tergov jarayonida xatolar, dalillar yetishmasligi va sud jarayonida ishlarning qaytarilishi holatlari kuzatilmoqda. Muallif bu holatlarni tanqid qiladi va muammo ildizi sifatida tergovchilarning yetarli malakaga ega emasligi, noto'g'ri tuzilgan so'rovnomalar hamda mutaxassislar yetishmasligini ta'kidlaydi.

Boshqa tomondan, ekspertiza tayinlanmagan yoki yetarli bilimga ega mutaxassislar jalb etilmagan holatlarda esa sud jarayonida dalillarning yetishmasligi sababli ishlar qayta tergovga yuborilgan yoki jinoyat isboti topilmagan. Bu holatlar jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya qilmaslik va tergovchi malakasining yetarli emasligidan dalolat beradi [7, 117-b.].

Ilmiy-amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, quyidagi omillar tergovning natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

- Tergovchilarning huquqiy va metodik bilimlaridagi yetishmovchilik: ko'p hollarda tergovchi ekspertdan nimani aniqlashni so'rayotganini aniq bayon eta olmaydi. Bu esa ekspertizada noaniqliklarga olib keladi [10, 75-b.].

- Ekspertlar yuklamaning ortishi tufayli kechikishi: bu holatda dalillar o'z ahamiyatini yo'qotishi yoki buzilishi mumkin [12, 151-b.].

- Tergovchi va ekspert o'rtasidagi aloqaning tizimlashmaganligi: ma'lumot almashinuvi va hamkorlik kanallarining yo'qligi ish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [3, 107-b.].

– Mutaxassislarning tayyorgarligi va malakasini oshirishdagi to‘siqlar: doimiy qayta tayyorlash kurslari va amaliyotga yaqin o‘quv dasturlarining yetishmasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

– ekspertlik institutini institutsional mustaqillik asosida isloh qilish;

– ekspert xizmatlarini moddiy-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash;

– tergovchilar uchun maxsus kurslar va doimiy malaka oshirish tizimini joriy etish.

Shuningdek, AQSh, Kanada, Yaponiya tajribasida maxsus bilimlar yordamida tergov natijalarini aniqlash ko‘rsatkichi 92–97 %gacha yetgani aniqlangan [8, 135-b.]. Ushbu natijalar tergovda maxsus bilimlardan keng foydalanishni tizimlashtirish va qonunchilik asosida kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlangan ilmiy-amaliy natijalardan biri shuki, tergovchi va ekspert o‘rtasidagi aloqa aniqlik, tezkorlik va ishonchlilikka asoslangan bo‘lsa, tergov sifati ortadi. Ekspertiza xulosalari asosida jinoyat sodir etilgan vaqt, asbob, zarba yo‘nalishi va boshqa muhim jihatlar aniqlangan [4, 95-b.]. Jumladan, bir jinoyat ishida ekspert zarbaning orqa tomondan qilinganini aniqlagan va bu tergov natijasida gumondorning ko‘rsatmasini rad etishda asos bo‘lgan [2, 138-b.]. Bu ilmiy yondashuv tergov samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Muallif sud-tibbiyot ekspertizasi tergovda yordamchi vosita emas, balki muhim isbotlash manbayi sifatida qaralishi zarurligini ilgari suradi. Ayrim mualliflar ekspertizani faqatgina dalillarni tasdiqlovchi omil sifatida ko‘rsa [5, 203-b.], bu yondashuv cheklangan deb hisoblanadi. Chunki ekspertiza orqali faqat mavjud holatni emas, balki ehtimoliy jinoyat ssenariylarini ham aniqlash mumkin. Shuning uchun holatli tahlil va simulyatsiya usullarini ham qo‘llashni zarur deb hisoblaydi.

Tadqiqotga ko‘ra, tergovchilar har doim ham ekspertiza o‘tkazish uchun ekspert jalb

qilishning qonuniy asoslarini hisobga olmaydi. Tekshiruv natijalari vaqti-vaqti bilan noto‘g‘ri tushuniladi. Tergov xulosalarining haqqoniyligiga bu salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Aytib o‘tilgan yana bir muammo – ekspertlar bilan aloqa qilish uchun yaxshiroq kanallarning yo‘qligi edi [4, 107-b.].

O‘zbekiston tergov amaliyotida ekspertiza o‘tkazish tartibi, ekspert xulosasining baholanishi va tergovchi topshiriqlarining aniqligi borasida bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

– Tergovchilar ko‘pincha ekspert so‘rovnomalarini noto‘g‘ri yoki umumiy tarzda tuzadi [9, 75-b.], bu esa ekspert tomonidan xulosa chiqarishda noaniqliklar keltirib chiqaradi.

– Ko‘p hollarda tergovchi ekspertizani vaqtida tayinlamaydi, bu esa dalillarning yo‘qolishi yoki buzilishiga sabab bo‘ladi [10, 33-b.].

– Ekspertlar yuklamasining ortiqchigi tufayli xulosalar kechikadi, bu esa tergov muddatining uzayishiga olib kelmoqda [11, 151-b.].

Tadqiqotda qo‘llangan tizimli tahlil va solishtirma metodlar orqali aniqlanishicha, xorijiy davlatlar, xususan, AQSh va Rossiya amaliyotida ekspertiza faoliyatiga alohida huquqiy maqom berilgan va tergovchi undan muntazam foydalanadi [12, 287-b.]. O‘zbekiston amaliyotida esa bu yo‘nalish hali to‘liq shakllanmagan. Bu farq bizga mavjud tajribalardan o‘rnak olish, milliy qonunchilik va amaliyotga moslashtirish lozimligini ko‘rsatadi.

Germaniyada tergovchi “ekspertizani boshqaruvchi subyekt” emas, balki hamkor sifatida qaraladi. Bunday yondashuv tergovning obyektivligini oshiradi [13, 211-b.]. Bu orqali tergovchi faqatgina shubha asosida emas, balki ilmiy asoslangan dalillar orqali ish yuritadi.

Fransiyada esa ekspertiza tizimi institutsional jihatdan mustaqil hisoblanadi, ya‘ni tergovchi ekspertga bevosita ta‘sir eta

olmaydi. Bu mustaqillik ekspert xulosasi-ning ishonchliligini oshiradi [14, 133-p.].

3-jadval

O'zbekiston va xorijiy tizimlar orasidagi asosiy farqlar

Asosiy mezon	O'zbekiston	Germaniya	Fransiya
Ekspertiza instituti maqomi	Tergov organlariga bo'ysunadi	Mustaqil ekspertiza tashkilotlari mavjud	Ekspertlar mustaqil organ tarkibida ishlaydi
Ekspert va tergovchi o'rtasidagi munosabat	Tergovchi ustun mavqega ega, topshiriqlarni belgilaydi	Hamkorlik asosida ekspert mustaqil fikr bildiradi	Ekspert – mustaqil tomon, tergovchi – buyurtmachi emas
Ekspertiza sifati va xolisligi	Tergov bosqichiga bog'liq bo'lishi mumkin, ba'zan xolislikdan yiroq bo'ladi	Xolislik yuqori darajada, sud tomonidan nazorat qilinadi	Xulosalar ustidan institutsional nazorat mavjud
Tergovchining tayyorgarligi	Ko'p hollarda maxsus bilimlarga ega emas	Tergovchilar ixtisoslashgan bilimlarga ega	Tergovchilar ekspertiza turlari bo'yicha muntazam o'qitiladi

Ushbu davlatlar amaliyotidan farqli ravishda, O'zbekistonda ekspertiza hali ham tergovchi nazorati ostida bo'lib, bu holat jarayonning xolisligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois jadvalda (3-jadval) qiyosiy tahlil asosida muhim farqlar keltirildi. Bu tahlillardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston tergov amaliyotida ekspertiza institutsional mustaqilligini kuchaytirish, tergovchilarni doimiy tayyorlov kurslariga jalb qilish hamda zamonaviy forensik texnologiyalarni joriy qilish zarur.

Xulosalar

Zamonaviy tergov jarayonining muhim tarkibiy qismi jismoniy zarar bilan bog'liq ji-

noyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlarni qo'llashdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, jinoyat sodir etish holatlarini to'g'ri aniqlashning asosiy elementi tergovchining ixtisoslashgan sohalar, xususan, sud tibbiyoti, psixologiya, kriminalistika, biologiya va boshqa fanlar mutaxassisleri bilan hamkorligi hisoblanadi. Jinoyat tarkibi, asosan, jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatlari darajasi, ularni yetkazish usuli, sodir bo'lgan vaqti va ularga yetkazilgan jismoniy oqibatlariga oid ekspert xulosalari bilan belgilanadi [15, 104-b.].

Tergov jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri – bu ekspertiza tayinlashdagi aniqlik va maqsadlilikning yetishmasligidir. Ko'plab tergov amaliyotida ekspertga berilayotgan savollar umumiy, noaniq yoki yetarli dalillar bilan ta'minlanmaydi, bu esa ekspert xulosasining sifatsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bois tergovchi tomonidan ekspertiza tayinlashda qonuniy asoslar, protsessual talablar va amaliy ehtiyojlar inobatga olinishi lozim [16, 151-b.].

Xorijiy tajriba bu borada muhim amaliy model sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, Germaniyada sud-tibbiyot ekspertizasi mustaqil ravishda faoliyat yuritadi. Bu esa uning tergovdan mustaqil, obyektiv va ilmiy asoslangan xulosa berishiga zamin yaratadi [17, 244-b.]. AQShda esa maxsus laboratoriyalar politsiya tizimidan alohida faoliyat yuritib, Federal sud ekspertizasi instituti orqali sertifikatlanadi. Bu kabi yondashuvlar O'zbekistonda ham amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

Shuningdek, tergovchilarning maxsus bilimlarga oid malaka oshirish kurslarini joriy qilish ham muhim ahamiyatga ega. Tergovchilar sud-tibbiyot, forensik psixologiya, DNK tahlillari, izshunoslik, biologik ekspertiza kabi yo'nalishlarda zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi tergov sifatini oshiradi. Bu borada Rossiya tergov tizimidagi tajriba diqqatga sazovor bo'lib, tergovchilar doimiy ravishda Kriminalistika akademiyalarida qayta tayyorlov kurslaridan o'tkaziladi.

Bundan tashqari, tan jarohati yetkazilgan jinoyatlar tergovida ekspert xulosalari asosida statistika yuritilishi, ularning dinamikasi, takroriyliigi va sabablari o'rganilishi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik choralar ishlab chiqishga yordam beradi. Bu borada BMT tomonidan ishlab chiqilgan "Model Protocol for Investigation of Torture" hujjatida zamonaviy sud-tibbiyot ekspertizasi va tergovning o'zaro integratsiyasi muhim tamoyil sifatida qayd etilgan [18, 69-b.].

Tadqiqotda olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagi xulosaga kelindi: tan jarohatlari yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish tergov sifatini oshiradi, shu bois tergovchilarning ushbu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish zarur; tergovchi va ekspert o'rtasidagi axborot almashinuvi tizimi takomillashtirilishi kerak; ekspertiza muassasalarining mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qonunchilik asoslari qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir; shuningdek, xorijiy tajriba asosida milliy ekspertiza tizimi modernizatsiya qilinishi lozim. Maxsus bilimlarga asoslangan tergov metodlari va texnologiyalari jinoyatlarni fosh qilish, adolatli qaror chiqarish hamda fuqarolarning huquqiy kafolatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tan jarohatlari yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish tergov sifatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Muallif quyidagi asosiy xulosa va takliflarni ilgari suradi:

– *Maxsus bilimlar asosida tergov amaliyotini takomillashtirish zarurati*

Jinoyat tarkibini aniqlashda sud-tibbiyot, kriminalistika, biologiya, psixologiya va boshqa fanlar vakillari tomonidan taqdim etilgan ekspert xulosalari muhim o'rin egallaydi. Ekspert xulosasi nafaqat yordamchi vosita, balki dalillar tizimining markaziy bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi lozim.

– *Tergovchilarning maxsus bilimlarga oid malakasini oshirish*

Tergovchilarning sud-tibbiy ekspertiza, DNK tahlillari, forensik psixologiya, trasologiya kabi yo'nalishlarda doimiy o'qitilishi va qayta tayyorlanishi uchun maxsus kurslar tashkil etilishi kerak. Rossiya, AQSh, Germaniya tajribalari asosida tergovchilarni uzluksiz o'qitish tizimi joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

– *Ekspertiza tayinlash tartibining aniqligi va maqsadlilikini oshirish*

Amaldagi holatlarda ekspertga berilayotgan savollar ko'p hollarda umumiy va noaniq bo'lib, bu xulosa sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli tergovchi tomonidan ekspertiza tayinlashda qonuniy asoslar, protsessual talablar va zarur dalillar inobatga olinishi shart.

– *Ekspertiza muassasalarining mustaqilligini ta'minlash*

Germaniya va Fransiya tajribasi asosida ekspert muassasalari tergov organlaridan mustaqil bo'lishi, bu esa ularning faoliyatida obyektivlikni ta'minlashi kerak. O'zbekistonda ham ekspertiza faoliyati mustaqilligini kafolatlovchi normativ-huquqiy asoslar ishlab chiqilishi lozim.

– *Statistik tahlil va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish*

Tan jarohatlari bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha ekspert xulosalaridan foydalanib, ularning sabablari, takroriyliigi va dinamikasi o'rganilishi kerak. Bunday yondashuv jinoyatlarning oldini olish bo'yicha samarali dasturlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

– *Xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, milliy ekspertiza tizimini modernizatsiya qilish*

BMT tomonidan qabul qilingan "Model Protocol for Investigation of Torture" hujjatidagi tamoyillarga asoslangan ekspertiza va tergov o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarur. Mustaqil, zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlangan ekspertiza laboratoriyala-

rini rivojlantirish orqali xizmat sifatini oshirish mumkin.

Muallifning fikricha, yuqorida bayon etilgan takliflarni amalga oshirish orqali tan jarohatlari yetkazish bilan bog'liq

jinoyatlarni tergov qilishda aniqlik, adolat va samaradorlikka erishiladi. Maxsus bilimlarga asoslangan tergov metodlari jinoyatlarni fosh etish, sudda asosli qaror qabul qilish va fuqarolarning huquqiy kafolatlarini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

REFERENCES

1. Jo'rayev A. Kriminalistika asoslari [Fundamentals of Forensic Science]. Tashkent, Yangi asr avlodi Publ., 2020, p. 384.
2. Karimov N. Sud-tibbiyot ekspertizasi asoslari [Fundamentals of forensic examination]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan Publ., 2019, p. 276.
3. Rahimov B. Jinoyat-protsessual huquq [Criminal procedural law]. Tashkent, Adolat Publ., 2022, p. 412.
4. Xasanova M. Jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish muammolari [Problems of using special knowledge in investigating crimes]. Tashkent, Huquq Publ., 2021, p. 198.
5. Shepit'ko V. YU. Ispol'zovaniye spetsial'nykh znaniy pri rassledovanii prestupleniy [Using Specialized Knowledge in Crime Investigation]. Moscow, Jurist Publ., 2018, p. 304.
6. Kudryavtsev V.N. Kriminalistika: teoriya i praktika [Forensics: theory and practice]. Moscow, Norma Publ., 2020, p. 350.
7. Jones D., Lee H. Forensic Science and Criminal Investigation. London, Routledge Publ., 2018, p. 117.
8. United Nations Office on Drugs and Crime. Guidelines for the Use of Forensic Evidence in Criminal Justice Systems. Vienna, 2022, p. 135.
9. Murodova S. Ekspertiza tayinlashda tergovchining vakolati va mas'uliyati [The investigator's authority and responsibility when appointing an expert examination]. *Tashkent State University of Law Scientific Newsletter*, 2023, vol. 1, pp. 73–80.
10. Xoliqova Z. Tan jarohatlari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda ilmiy-texnik vositalar roli [The role of scientific and technical tools in the investigation of crimes involving bodily harm]. *Ichki Ishlar Organlari Faoliyati*, 2022, vol. 3, pp. 31–35.
11. Rahimov A. Ekspertiza faoliyatida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar [Current problems arising in expertise activities]. *Uzbekistan Legal Bulletin*, 2022, vol. 4, pp. 145–152.
12. James S.H., Nordby J.J. Forensic Science: An Introduction to Scientific and Investigative Techniques. CRC Publ., 2020, p. 728.
13. Benecke M. Kriminalbiologie für Ermittler: Forensik, Spuren und Täterprofile [Criminal biology for investigators: forensics, traces and perpetrator profiles]. München, Riva Verlag Publ., 2014.
14. Gautier E. L'expertise médicale légale: entre science et justice [Forensic medical expertise: between science and justice]. Paris, Presses Universitaires de France Publ., 2018.
15. Smith J. Forensic Medicine and Criminal Investigations. Oxford, OUP Publ., 2021.
16. Qurbonov S. Jinoyatlarni tergov qilishda sud-tibbiy ekspertizasining o'rni [The role of forensic medical examination in the investigation of crimes]. Tashkent, Huquq Publ., 2020.
17. Meixner A., Rothschild M. Forensic Science in European Legal Systems. Berlin, Springer Publ., 2019.
18. United Nations Istanbul Protocol: Manual on the Effective Investigation and Documentation of Torture. Geneva, UN Publ., 2020.
19. Kondrat'yev V.B. Global'naya farmatsevticheskaya promyshlennost' [The global pharmaceutical industry]. Available at: <http://perspektivy.info/rus/ekob/2011-07-18.html>

20. Interpol. Forensic Science Sub-Directorate: International Forensic Science Network. Available at: <https://www.interpol.int/en/Criminal-activity/Forensics>
21. United Nations Office on Drugs and Crime. Guidelines for the Use of Forensic Evidence in Criminal Justice Systems. Available at: <https://www.unodc.org/unodc/en/forensic-science/index.html>
22. Jinoyatlarni tergov qilishda maxsus bilimlardan foydalanish [Use of special knowledge in the investigation of crimes]. Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Available at: <https://www.mvd.uz/ru/press/news/2023/forensic-science>
23. Tergovda maxsus bilimlarning ahamiyati: yangi yondashuvlar [The importance of specialized knowledge in investigation: new approaches]. Available at: <https://www.sudex.uz/ru/specialist-science>
24. Forensic Science in Criminal Investigation. Justice.gov. Available at: <https://www.justice.gov/criminal-forensic-science>
25. The Role of Forensic Experts in Criminal Investigation: A Global Perspective. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/362157126>
26. Forensic Expertise and Criminal Investigation in Central Asia. Available at: <https://www.accord.org/forensic-expertise-central-asia>
27. Houck S. Criminalistics and Forensic Science. Academic Publ., 2017, p. 384.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 2-son

VOLUME 9 / ISSUE 2 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.2.